



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 2-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Latipov Xursandbek

XIVA XONLIGIDA “XONBOZI DAVRI”5-11

Qodirov Najmiddin, O‘tanov Normo‘min

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY
ASOSLARINI SHAKLLANISHI..... 12-22

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Rustamova Sayyora, Abdulhakimova Mohlaroy

TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA TASHKILIIY MADANIYATNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 23-29

09.00.00- FALSAFA FANLARI

Yazdonov Ulugbek

ZAMONAVIIY DUNYO DRAYVERI SIFATIDA KIRIB KELGAN SUN‘IIY INTELLEKT VA UNING
RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI..... 30-34

Zakirov Shakirdjan, Djuraev Avazbek

THE ROLE OF INTERETHNIC HARMONY IN STRENGTHENING SOCIAL STABILITY IN
UZBEKISTAN..... 35-42

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Akhrorova Manzura

THE INTERPRETATION OF INNER SUFFERING AND SELF-SACRIFICE IN THE COMPARISON
OF HAMLET AND FARHOD..... 43-46

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Usmonqulov Jo‘rabek

SUN‘IIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA OLIY TA‘LIMDA IJODKORLIK VA
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH..... 47-52

Jumaboev Nabi

POSSIBILITIES OF USING THE AESTHETIC HERITAGE OF ORIENTAL THINKERS IN YOUTH
EDUCATION..... 53-59

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Elmurodov Faxriddin

ELEKTORAL MADANIYAT VA UNING JAMIYAT SIYOSIY HAYOTIDAGI O‘RNI..... 60-65

23.00.00- SIYOSIY FANLAR – POLITICAL SCIENCES*Article / Original Paper***ELEKTORAL MADANIYAT VA UNING JAMIYAT SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI****Elmurodov Faxriddin Farxodovich**

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi
Markaziy Kengashi Boshqarma boshlig'i
Email: elmurodov.fakhriddin@mail.ru
Tel: +998 99 848 67 12

Annotatsiya. Maqolada elektoral madaniyat tushunchasining nazariy va amaliy asoslari, uning jamiyat siyosiy hayotidagi o'rni hamda demokratik islohotlar jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Elektoral madaniyatni shakllantirishda fuqarolarning siyosiy bilim darajasi, siyosiy faollik va huquqiy ongning ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, saylov madaniyatini rivojlantirishda yoshlarning ishtiroki, fuqarolik jamiyati institutlari va siyosiy partiyalarning roli ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: elektoral madaniyat, saylov tizimi, siyosiy ong, fuqarolik jamiyati, demokratiya, siyosiy faollik, yoshlar siyosiy madaniyati.

ELECTORAL CULTURE AND ITS ROLE IN THE POLITICAL LIFE OF SOCIETY**Elmurodov Faxriddin**

Head of the Department
of the Uzbekistan People's Democratic Party

Annotation. The article highlights the theoretical and practical foundations of the concept of electoral culture, its place in the political life of society, as well as its significance in the process of democratic reforms. It analyzes the role of citizens' level of political knowledge, their political activity, and legal consciousness in the formation of electoral culture. In addition, from a scientific perspective, the article substantiates the role of youth participation, civil society institutions, and political parties in the development of electoral culture.

Keywords: Electoral culture, Electoral system, Political consciousness, Civil society, Democracy, Political activity, Youth political culture.

Kirish.

Har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyotida siyosiy faoliyat va aholining saylov jarayonlariga bog'liq madaniyati muhim ahamiyatga ega. Siyosiy madaniyat – bu fuqarolarning siyosiy jarayonlarga munosabati, ularning huquq va majburiyatlarni anglashi hamda davlat boshqaruvida ishtirok etish darajasini ifoda etuvchi tushuncha hisoblanadi. Jamiyatda elektoral madaniyatning rivojlanishi nafaqat saylov jarayonlarining samarali tashkil etilishi, balki aholining siyosiy ongi va faolligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu boisdan, elektoral madaniyat fuqarolarning huquqiy bilimlari, mas'uliyat va faol ishtirok tamoyillari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning shakllanishi davlat va jamiyatning siyosiy barqarorligi uchun muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Har qanday davlatning demokratiyasini shakllanishi uning siyosiy jarayonlari, islohatlariga bog'liq bo'ladi. Siyosiy jarayonlardan biri bu saylovlardir. Saylovlar esa fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqini amalga oshirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Shu bois, saylovlar demokratiyaning turfa ko'rinishda namoyon bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Saylov madaniyatini shakllantirish ham ayni shu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Saylov madaniyati bo'yicha xorijiy davlat olimlaridan G.Almond, X.Fayer, S.Verba, A.Lipset, M.Dyuverje, U.Rozenbaum, G.Pauell, L.Pay, P.Burdye, J.Dyui, R.Aron, B.Berelson, G.Gosnell, E.Dauns, A.Kempbell, P.Lazarsfeld, S.Lipset, A.Lipxart, M.Lyuis-Bek, Ch.Merriam, S.Rays, S.Rokkan, J.Sartori, M.Fiorinalar va boshqalar tomonidan ko'plab ilmiy tatqiqotlar va kitoblar nashr qilingan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlari Y.A.Vedeneyev, I.N.Gomerov, B.C.Komarovski, A.V.Korshunov, A.M.Loginova, V.T.Maksimov, S.V.Nazarenko, D.B.Oreshkin, D.D.Oreshkina, V.V.Sutirin, R.F.Turovskiy, S.A.Shirobokov, sotsiologiya sohasida esa K.A.Litkina, O.S.Morozova, O.G.Smirnova, N.V.Timoshenko va boshqalar tomonidan ham izlanish natijasida turli xildagi adabiyotlar, maqolalar chop etilgan. Mamlakatimizda mustaqillik davrida jamiyat taraqqiyoti va siyosiy hayotida demokratik saylovlarning tutgan o'rni, fuqarolarning siyosiy tafakkuri va madaniyatini shakllantirish masalalarini tadqiq etishda A.Berdishukurov, U.Muhammadiyev, X.Odilqoriyev, I.Saifnazarov, B.To'ychiyev, K.Umarova, A.Xolbekov, Sh.Xolmatov, S.Choriyev, Sh.G'oyibnazarov, A.Haydarov kabi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy monografiyalar, maqolalar va publitsistik asarlar, shuningdek, himoya qilingan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Muhokama.

Saylovchilarning elektoral madaniyat tushunchasi siyosiy fanlar tizimida so'nggi o'n yilliklarda alohida ilmiy yo'nalish sifatida kirib keldi. «Elektoral (lotincha elector – ovoz beruvchi) madaniyat – bu saylovchiga xos madaniyat [1; 32-b] bo'lib, fuqarolarning o'z siyosiy huquqlarini amalga oshirish uchun davlatda o'tkazilayotgan saylovlarda ishtirok etishi, saylovga oid huquqiy bilimlarga ega bo'lishi hamda ularning siyosiy faolligini ifodalashda ko'rinadi.

Elektoral madaniyat bo'yicha turli ilmiy qarashlar mavjud. Jumladan, elektoral madaniyat bo'yicha MDH doirasida amalga oshirilgan ilk ilmiy ishlardan birining muallifi siyosatshunos olim I.N.Gomerov (1995 y.), «elektoral madaniyat u yoki bu jamiyat madaniyatida belgilar yoki belgilar tizimi yordamida qayd qilinadigan, saqlanadigan, uzatiladigan o'ziga xos elementlarni namoyon etuvchi siyosiy saylovlar haqidagi bilim, baho va meyorlar tizimidir» [3; 42-43-b] deb fikr bildiradi. Shuningdek, u elektoral madaniyatni ta'riflashda xilma-xillik, ya'ni saylovlar jarayonini o'rganishga nisbatan yondashuvlarning turli-tumanligiga asoslanishini tahlil etib, tadqiqotlarning qaysi fan doirasida o'tkazilganiga hamda makon (mamlakat yoki unda hukmron siyosiy tuzum) va zamonga (davrga) bevosita bog'liq bo'lishini asoslaydi.

Boshqa bir olim Y.Fyodorov esa, «elektoral madaniyat – bu elektoral xulq-atvor va elektoral munosabatlar, hamda saylov jarayonlari haqidagi bilim, baholar ko'rsatkichi va meyorlar tizimi bo'lib, u insonlarning saylov jarayonlari haqidagi jamoaviy xotiralarini o'zida ifoda qiladi», degan izohni beradi [2; 11-b].

N.V.Timoshenko elektoral madaniyatning saylovoldi vaziyatlardagi real va noreal xatti-harakatlarni saylov jarayoni xulq-atvorlariga mos keluvchi sotsial baho, o'y-fikr, his-

tuyg'u va sezgilarni tashkil qiluvchi sotsial-psixologik jihatlariga ustuvor ahamiyat beradi [7; 26-27-b].

Elektoral madaniyat tizim sifatida yoritilar ekan, uni ko'plab tadqiqotchilar ma'lum bir muhitda tarqalgan mifologik, teologik, badiiy, meyoriy, baholovchi, ma'rifiy va boshqa quyi tizimlardan iborat bir qator submadaniyatlarga bog'liq ekanligiga e'tibor qaratadilar. Shunday bo'lsada, aksariyat tadqiqotchilar elektoral madaniyatni ta'riflashda uning ratsional jihatlaridan tashqari irratsional tomonlariga ham e'tibor beradilar. Jumladan, A.M.Loginova elektoral madaniyatning aqliy va mushohadaviy tomonlari bilan birga, hissiy jihatlarini ham yoritib, unda saylovchilarning xulq-atvorlarida irratsional motivlar faol va muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, «elektoral madaniyat – bu saylovchilarning ratsional va irratsional yo'nalishlari va e'tiroflari tizimidir. Shuningdek, jamiyatda elektoral jarayonni tartibga solib turuvchi meyor, qoida va an'analar tizimi ham mavjuddir» [4; 20-b].

O.S.Morozova elektoral madaniyatni jamiyatda hukmron bo'lgan elektoral jarayon va mo'ljallarning mazmun-mohiyati va xususiyatlarini belgilab beruvchi qadriyatlar, tasavvurlar va meyorlar yig'indisi sifatida ta'riflaydi [5; 101-b].

Elektoral madaniyat elektoral xulq-atvor, elektoral munosabatlar va umuman saylov jarayoni haqidagi bilim, baho va meyorlarning nisbatan turg'un tizimidir. Elektoral madaniyatni saylovchilarning mas'uliyati (saylovlarning muhimligi va ahamiyatini anglash) va kompetentlik (bilimlar, vaziyatni baholay olish ko'nikmasi) belgilab beradi.

Demak, Elektoral madaniyatga quydagicha tarif berish mumkin: elektorat madaniyati bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning siyosiy bilim, e'tiqod, qadriyat va manfaatlarni anglash hamda ularni ongli ravishda baholash darajasi, shuningdek, saylov jarayonida, saylovoldi va saylovdan keyingi davrlarda mazkur asoslardan kelib chiqib amalga oshiradigan faoliyatining uyg'un birligini ifodalovchi siyosiy madaniyat ko'rinishidir.

Antik davrda elektoral madaniyat asosan ommaviy xususiyat kasb etgan bo'lsa, o'rta asrlarga kelib, u guruhiiy madaniyat xususiyatlarini o'zida mujassam eta boshladi. Yangi davrda elektoral madaniyat hodisasi ommaviy demokratiya institutlarining yangicha ko'rinishlarini paydo qildi. Bu davrda demokratik jarayonlar davlat qarorlarini qabul qilishda ovozlari sonini mexanik tarzda hisoblashdan (antik) dolzarb muammolar yuzasidan diskurs yuritishga (yangi davr) o'tildi. Dastlabki bosqichda kamchilikning ko'pchilikka bo'ysunishini ko'rsak, keyinchalik turli xil fikrlarni hisobga olish va murosaga kelish holatini kuzatamiz.

Garchi elektoral madaniyat tushunchasi fanga kirib kelganiga uncha ko'p bo'lmagan bo'lsada, biroq elektorat madaniyatining shakllanish ildizlari insoniyat tarixida juda qadimga borib taqaladi. Ilk davlatchilik shakllari paydo bo'lgan davrlardayoq odamlar o'z jamoasi va hududini boshqarish uchun eng munosib shaxsni tanlash (saylash) amaliyotiga ega bo'lgan.

Qadimda shakllangan saylov tizimlari elektoral madaniyatning poydevori sifatida xizmat qilgan. Ular orqali fuqarolar o'zini davlatning ajralmas qismi sifatida his qilishni, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish orqali kelajakka ta'sir ko'rsatishni o'rgangan.

Zamonaviy saylov tizimlarining shakllanishi XIX asrning oxirlaridan boshlab AQSH va G'arbiy Yevropada davlatlarida qo'llanilib tatqiq etila boshladi. Saylov jarayonlarini o'rganishda empirik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratildi. Bu davrda ayniqsa saylov natijalarini oldindan bashorat qilish amaliyoti shakllandi va unda «somonli so'rovlar» (straw polls) [8] muhim uslubiy vosita sifatida qo'llanildi. XX asr boshlarida bunday tajribalarning nazariy ahamiyati ham tobora kuchaydi. Avvalo, saylov jarayonlari siyosiy institutlar

faoliyatini o'rganish bilan birga ijtimoiy psixologiya, ommaviy fikr va siyosiy ishtirok kabi masalalar bilan uzviy bog'lanib bordi. Shu tariqa, elektoral tadqiqotlar sotsiologiya va siyosiy fanlarning alohida yo'nalishi sifatida shakllanishiga zamin yaratildi.

O'zbekiston hududida esa ilk o'tkazilgan zamonaviy saylovlar tarixi 1877 yilga borib taqaladi. O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan istilo qilingandan so'ng Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi va uni boshqarish uchun Turkiston o'lkasi - viloyatlarga, viloyatlar - uyezdlarga, uyezdlar - volostlarga, volostlar - uchastkalarga, uchastkalar - oqsoqollar boshqaruvidagi ma'muriy hududga bo'lingan. Viloyat, uyezd va uchastkalarni rus harbiylari; oqsoqolliklarni mahalliy xalq vakillari boshqarishi nazarda tutilgan. Viloyatlarga harbiy gubernatorlar tayinlanib, ular shaxsan rus podshosi tomonidan tasdiqlangan. Uyezd boshliqlariga rus polkovniklari tayinlangan. Uchastka pristavlari kapitanlardan tayinlangan. Volost (bulus) boshqaruvchilari, yuzboshi-oqsoqollar, ellikboshi va o'nboshilar mahalliy aholi vakillaridan saylov asosida saylangan [6; 188-b].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, saylov va elektoral madaniyati tizimi insoniyat tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, u jamiyatning siyosiy madaniyati, huquqiy ongi va davlatchilik darajasini ifodalovchi muhim mexanizmi bilan ifodalanadi.

Elektoral madaniyat siyosiy madaniyatning muhim ko'rinishi va amaliy ifodasi sifatida demokratik qadriyatlarni mustahkamlaydi, fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlaydi hamda jamiyatda siyosiy barqarorlikni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Shu o'rinda alhida takidlash lozimki, elektoral madaniyatning jamiyatda ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lishi tarixan «siyosiy madaniyat» tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi va uning bevosita saylovlar bilan bog'liq holda rivojlanishini ko'rsatadi. Zero, elektoral madaniyat siyosiy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanib, uning saylovlar bilan bog'liq jihatlarini qamrab oladi.

Siyosiy madaniyatni yuksaltirishda siyosiy partiyalar alohida ahamiyatga ega bo'lgan institut hisoblanadi. Siyosiy partiyalar – bu g'oyalar va manfaatlar, inson va jamiyat, davlat va fuqaro o'rtasidagi uzviy bog'lanishni ta'minlovchi ko'prikdir. Ularning falsafiy mohiyati esa ana shu murakkab munosabatlarni muvofiqlashtirish, fuqarolarda ma'naviy ong, axloqiy mas'uliyat va siyosiy faollikni yuksaltirish bilan ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 2 fevralda siyosiy partiya rahbarlari bilan uchrashuvda "Davlat va jamiyat hayotiga doir keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda, xalqimiz huquq va manfaatlarini himoya qilishda siyosiy partiyalarning o'rni katta" deb ta'kidlagandilar[9].

Shuningdek, jamiyat siyosiy hayotida alohida ahamiyat kasb etuvchi siyosiy partiyalar elektoral jarayonlar subyektlari sifatida jamiyatdagi elektoral madaniyatning holatini ma'lum bir ma'noda belgilab berish maqomiga ega. Siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy bilim, huquqlari va qarashlarini shakllantirishda asosiy institut sifatida xizmat qiladi. Partiyalar orqali fuqorolar siyosiy jarayonlar haqida to'liq va xolis ma'lumot oladi, hozirgi islohotlarning mohiyatini anglaydi, demokratik qadriyatlarni o'rganadi. Bundan tashqari, partiyalar jamoatchilik bilan muloqot, ochiqlik va oshkoralik tamoyillari orqali aholi siyosiy faolligini oshirishga harakat qiladi.

Yurtimizda aholining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ongi darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi,

mamlakatda ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta subyekti, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'rtasidagi vakolatlarining yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi. Bu esa, o'z navbatida, elektoral madaniyatning rivojlanishiga turtki berdi.

So'ngi yillarda yurtimizda demokratik islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida saylov jarayonlarining alohida e'tibor qaratilishi, uning huquqiy asoslari mustahkamladi. Bu borada qabul qilingan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar xalqaro demokratik standartlar talablariga mos ravishda qayta ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi. Xususan, "Saylov kodeksi", "O'zbekiston respublikasining referendumini to'g'risida"gi, "Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlar va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin.

Saylov to'g'risidagi qonunchilikda siyosiy partiyalar va nomzodlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan qoidalar belgilab qo'yildi. Saylov komissiyalari faoliyatining ochiqdigi va shaffofligi oshirildi, ularning mustaqilligi va fuqarolar oldida hisobdorligi kafolatlandi. Shu bilan birga, ovoz berish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, har qanday saylovlarning asosiy ishtirokchisi bu yoshlar hisoblanadi. Bugun yurtimiz aholining 60 foizini yoshlardan tashkil etadi. Bugungi kun yoshlari – O'zbekistonning siyosiy kelajagini belgilovchi kuchdir. Yaqin kelajakda ular nafaqat mamlakatimizning qiyofasini, balki undagi saylovlarning maqomini aniqlab beradi. Hokimiyatni demokratik jihatdan tashkillashtirishda saylovlar jarayonining samarali texnologiyaga aylanishi bevosita yoshlarning hayotiy qadriyatlari va xulq-atvor namunalari bilan uzviy bog'liqdir.

Davlatimiz rahbari tomonidan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi ham mamlakatimizda yoshlar masalasiga davlat miqyosida yuqori e'tibor qaratilayotganligining amaliy ifodasidir. Qonunlarning qabul qilinishi yoshlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini yanada mustahkamlab, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi uchun huquqiy asos yaratdi. Bu o'z navbatida yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar bugun demokratik tamoyillarni mustahkamlash, fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash va mamlakatda ochiq, adolatli hamda shaffof saylov tizimini barpo etishga xizmat qilmoqda.

2021 yil 7 iyundagi Oliy Majlis palatlarining "Aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish bo'yicha Milliy harakatlar dasturi to'g'risida"gi qo'shma qarorini qabul qilinishi aholining elektoral madaniyatini yuksaltirishning asosiy yo'nalishlar va amaliy vazifalarni belgilab berib, «Bir saylovchi - bir ovoz» tamoyili asosida fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish, saylovlar va referendumlarning ahamiyatiga doir tushuntirish ishlarini zamon talablariga muvofiq takomillashtirish, saylov komissiyalar a'zolarining malakasini oshirish, ularga uslubiy, tashkiliy va texnik yordam ko'rsatish ishlarini yangi bosqichga olib chiqishda katta qadam bo'ldi.

Xulosa.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, elektoral madaniyat zamonaviy siyosatshunoslikning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u fuqarolarning siyosiy ongini, saylovlardagi ishtirokini, siyosiy jarayonlarga munosabatini ifodalovchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Ilmiy manbalarda ushbu tushuncha turlicha talqin qilinayotgan bo'lsada, ularning barchasini birlashtiruvchi jihat — elektoratning siyosiy xulq-atvori, qadriyatlari, e'tiqodlari va saylov amaliyotiga oid bilimlar tizimining yaxlit holda namoyon bo'lishidir.

Tahlillardan kelib chiqib, elektorat madaniyatini yuksalatirish, fuqarolarning siyosiy faolligi oshirish va demokratik jarayonlar yangi bosqichga ko'tarishda siyosiy partiyalar quyidagi amaliy ishlarni amalaga oshirish taklif etiladi.

Birinchidan, siyosiy partiyalar elektorat bilan muntazam muloqot va jamoatchilik fikrini o'rganishning zamonaviy mexanizmlari onlayn so'rovnomalar, fokus-grupp muhokamalari joriy etishi zarur.

Ikkinchidan, partiyalar o'z targ'ibot va siyosiy ta'lim faoliyatini ilmiy-metodik asosda tashkil etishi lozim. Siyosiy bilimlar, saylov huquqi, fuqarolik mas'uliyati, siyosiy qaror qabul qilish mexanizmlari haqida aholining tadrijiy savodxonligini oshirish uchun o'quv seminarlari, mediakontent, qo'llanmalar va onlayn platformalarni kengaytirish zarur. Bu elektoratning ongli, tahliliy ovoz berish imkoniyatini kuchaytiradi.

Uchinchidan, partiyalar yoshlar bilan ishlash tizimini institutsional darajada mustahkamlashi kerak. Yoshlar qanoti, yoshlar siyosiy debatlar, amaliy siyosiy maktablar faoliyatini kuchaytirish orqali partiyalar kelajak saylovchilarining siyosiy faolligini oshiradi. Tadqiqotlar yoshlarning siyosiy jarayonlarga erta jalb etilishi umumiy elektoral madaniyatning yuksalishiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umuman olganda elektoral madaniyat jamiyat siyosiy madaniyatining ajralmas qismi sifatida demokratik qadriyatlarni mustahkamlaydi, fuqarolarning ongli ravishda siyosiy hayotda ishtirok etishini ta'minlaydi hamda davlat va jamiyat boshqaruvida barqarorlik, ochiqlik va ishonchni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ushbu jarayonlarni izchil davom ettirish elektoratning siyosiy faolligi, ongli tanlovi va demokratik qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Ahmedov D., Asadov Sh. Saylov huquqiga oid izohli lug'at. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
2. Федоров В.В. Русский выбор. Введение в теорию электорального поведения. – М.: Праксис, 2010.
3. Гомеров И.Н. Электоральная культура: политологический анализ: Дис. докт. политол. наук. – Новосибирск, 1995.
4. Логинова А.М. Формирование и развитие российской электоральной культуры 1989-2004 гг. Дис. ... канд. политол. наук. – М., 2004.
5. Морозова О.С. Электоральная культура: понятие и основные функции // Культура и образование.
6. Hamidov N., Sh.Ernazarov, B.Raxmonov "O'zbekiston tarixi" o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021.
7. Тимошенко Н.В. Электоральная культура современного российского общества (социологический аспект): Дис. канд. социол. наук. – М., 2000.
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Wikipedia:Straw_polls

9. <https://president.uz/uz/lists/view/4130>

HUMANSIENCES.UZ

№ 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com